

HOJIAKBAR SHAYXOV VA REY BREDBERI BADIY OLAMI ADABIY TAHLIL VA QIYOSIY TAHLIL

G. Xudayberdiyeva ¹*Annotatsiya:*

Mazkur tezisdagi Hojiakbar Shayxov va Rey Bredberining badiiy olami qiyosiy tahlil qilinadi. Adiblarning asarlarida jamiyat, texnologiya, inson taqdiri va axloqiy qadriyatlar aks etgan. Shayxovning milliy va realistik yondashuvi hamda Bredberining fantastik va futuristik dunyoqarashi solishtirilib, ularning ijodiy yondashuvlari o'rganiladi. Ushbu tezis orqali adiblarning asarlari insoniyatga oid umumbashariy muammolarni qanday talqin qilganligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Hojiakbar Shayxov, Rey Bredberi, ilmiy-fantastika, realistik adabiyot, axloqiy qadriyatlar, texnologiya, jamiyat, qiyosiy tahlil.

Kirish

Fantastik adabiyot inson tafakkuri va tasavvurining mahsuli bo'lib, u o'quvchini real hayotdan tashqariga olib chiqib, tasavvur va hayolot olamiga yetaklaydi va yangi g'oyalar bilan tanishishga, inson tafakkurining naqadar cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini o'rganish va tasvirlashga xizmat qiladi. Fantastik asarlar insoniyatning kelajak haqidagi tasavvurlarini aks ettirish, ijtimoiy va falsafiy muammolarini yoritishi hamda ilmiy tarqiqotga ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Bu janr o'quvchini real hayotda imkonsiz yoki hali mavjud bo'lmagan hodisalar ustida fikr yuritishga undaydi. Bunday asarlar orqali mualliflar o'z ijodiy fantaziyalarini namoyish etib, o'quvchini yangi g'oyalar bilan tanishtiradi.

Hojiakbar Shayxov va Rey Bredberi — biri o'zbek adabiyotining, ikkinchisi jahon fantastikasining yirik vakillari bo'lib, ularning ijodida umumbashariy muammolar o'ziga xos talqin etiladi. Shayxovning asarlarida milliy qadriyatlar va insoniylik masalalari realistik ruhda tasvirlansa, Bredberi ijodida kelajak jamiyati va uning axloqiy inqirozi fantastik tasvirlar orqali ochib beriladi.

Ushbu tezisdagi Hojiakbar Shayxov va Rey Bredberining badiiy olami qiyosiy tahlil qilinadi. Ularning asarlaridagi asosiy mavzular, uslubiy xususiyatlar va jamiyatga bo'lgan munosabatlari solishtirib o'rganiladi. Tadqiqot davomida adiblarning asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy muammolar qanday talqin etilgani tahlil qilinadi hamda ularning adabiy-estetik ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism

Hojiakbar Shayxov va Rey Bredberi badiiy olamini qiyosiy tahlil qilish uchun ularning asarlaridagi asosiy jihatlarni solishtirib chiqish lozim. Bu ikki adib turli davr va madaniy muhit vakillari bo'lsa-da, ularning asarlarida jamiyat, inson taqdiri, ilm-fan va texnologiyaning insoniyatga ta'siri kabi umumiy mavzular ko'tariladi.

1. Asosiy mavzular va g'oyalar

Hojiakbar Shayxov zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan bo'lib, uning asarlari odatda realistik ruhda yozilgan. U asarlarida insoniy qadriyatlar, milliy o'zlik, jamiyatdagi muammolar, taqdir va adolat mavzularini ko'taradi. Uning ijodida milliy ruh, tarixiy tafakkur va zamonaviy muammolar o'z aksini topadi. Rey Bredberi esa fantastik adabiyotning yirik vakillaridan bo'lib, asosan ilmiy-fantastik va antiutopik yo'nalishda ijod qilgan. Uning asarlarida texnologiyaning jamiyatga salbiy ta'siri, insoniyatning kelajagi, axloqiy inqiroz, mafkura nazorati kabi mavzular ko'tariladi. "Fahrenheit 451", "Mars xronikalari", "Kaleidoskop" kabi asarlarida inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar yoritilgan.

Rey Bredberi asarlarida texnologiyaning insoniyatga ta'siri markaziy o'rinda turadi. "Mars solnomalari" asarida insoniyatning Marsni kolonizatsiya qilishi orqali texnologik taraqqiyotning madaniy va axloqiy oqibatlarini yoritiladi. Hojiakbar Shayxov ham o'z asarlarida texnologiyaning rivojlanishi va uning insoniyatga ta'sirini o'rganadi [1]. "Birinchi sinov" hikoyasida kosmik kema ekipajining uzoq safarga chiqishi va bu jarayondagi insoniy tajribalar tasvirlanadi [2]. "Olovdan chiqqan odam" hikoyasida esa mistika va fantastika orqali insonning o'z-o'zini anglash masalalari ko'tariladi [3].

Ikkala adibning asarlarida jamiyat va axloqiy qadriyatlar va ular oldidagi xavf-hatar haqida so'z yuritiladi. Rey Bredberi asarlarida jamiyatning axloqiy inqirozi va insoniy qadriyatlarning yo'qolishi mavzusi dolzarbdir. "Farengeyt bo'yicha 451 daraja" romanida totalitar jamiyatda kitoblarning yo'q qilinishi orqali insonlarning fikrlash qobiliyatining susayishi va axloqiy qadriyatlarning yo'qolishi ko'rsatiladi [4].

¹ Xudayberdiyeva Guliza Ma'mirjon qizi, SamDChTI "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida 1-kurs magistranti

Hojiakbar Shayxov asarlarida insoniy qadriyatlar, milliy o'zlik va jamiyatdagi muammolar yoritiladi. Uning "Iblis bilan muloqot" hikoyasida insonning ichki dunyosi, axloqiy tanlovlari va jamiyatdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov asarlarida inson va kosmos munosabatlarini qiyoslasak, Rey Bredberi asarlarida insonning kosmosni o'zlashtirishi, yangi sayyoralar ko'chishi kabi mavzular ko'tariladi. "Mars solnomalari" asarida insoniyatning Marsni zabt etishi orqali yangi dunyolarni o'zlashtirishning madaniy va axloqiy oqibatlarini yoritiladi [1]. Hojiakbar Shayxov o'z asarlarida inson va kosmos munosabatlarini mistik va falsafiy nuqtai nazardan o'rganadi. Uning "Birinchi sinov" hikoyasida insonning koinotdagi o'rni, sirli va noma'lum olamlar bilan bog'liq tajribalari tasvirlanadi [2].

2. Uslub va tasvirlash vositalari

Hojiakbar Shayxov asarlarida realistik va ta'sirchan tasvirlar, milliy ruh, obrazlarning ichki dunyosini ochib berish asosiy o'rinni egallaydi. Uning hikoyalari va romanlari hayotiy bo'lib, qahramonlarning ichki kechinmalari muhim rol o'ynaydi. Rey Bredberi esa metaforalar, ramziy tasvirlar va futuristik syujetlarga asoslangan uslubdan foydalanadi. U inson psixologiyasini chuqur o'rganib, fantastik voqealar orqali dolzarb muammolarni ko'taradi

Rey Bredberi o'z asarlarida poetik va falsafiy ohang bilan birga, ramzlar va metaforalarga boy ifoda uslubini qo'llaydi. Uning fantastik hikoyalari ko'pincha insoniyatning kelajagi, texnologiya va insoniylik munosabatlarini o'rganishga qaratilgan.

Bredberining asosiy uslubiy xususiyatlari:

Poetik va badiiy til – Bredberining fantastik adabiyotdagi o'rni beqiyos bo'lib, uning asarlarida she'riylik va obrazlilik ustun turadi. Masalan, "Farengeyt 451" romanida olov tasvirlari insoniyatning tafakkur va madaniyatiga tahdid sifatida poetik ohangda berilgan [4].

Ramziy va metaforik yondashuv – "Mars solnomalari" asarida Marsga ko'chib o'tgan insonlarning sayyora moslashishi orqaligina inson mohiyatini anglash mumkinligi tasvirlanadi [1].

Texnologiya va insoniyatning kelajagi mavzusi – "Yomg'ir keladi" hikoyasida texnologiyaning haddan tashqari rivojlanishi natijasida insoniylikning yo'qolib borishi tasvirlangan [6].

Satira va keskin tanqid – "Farengeyt 451" romanida kitoblarga bo'lgan taqiq orqali totalitar jamiyatning ruhsizligi tasvirlangan [4]

Hojiakbar Shayxov asarlarida realistik va fantastik unsurlar uyg'unlashgan bo'lib, u insoniyat kelajagi va umuminsoniy muammolarni yoritishda o'ziga xos badiiy vositalardan foydalangan.

Shayxovning asosiy uslubiy xususiyatlari:

Haqiqiy voqelik va fantastikaning uyg'unligi – "Birinchi sinov" asarida insoniyat kelajagi ilm-fan va axloqiy qadriyatlarining uyg'unlashuvi bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi [2].

Ilmiy-fantastik motivlar – "Olovdan chiqqan odam" asarida insoniyatning yadro energiyasidan noto'g'ri foydalanishi natijasida yuzaga kelgan ekologik halokat aks ettirilgan [3].

Falsafiy mulohazalar va ichki kechinmalar – "Iblis bilan muloqot" hikoyasida qahramonning o'z tafakkuri bilan kurashi va iymon sinovi oldidagi holati tasvirlangan [5].

Yuqori darajadagi ijtimoiy tanqid – "So'nggi ajdarhalar" romanida insoniyatning o'z tabiiy resurslarini qanday isrof qilishi va buning oqibatlarini tanqid ostiga olingan.

Xulosa

Hojiakbar Shayxov va Rey Bredberining asarlarida texnologiya, jamiyat va insoniyat taqdiri kabi mavzular turli nuqtai nazardan yoritiladi. Rey Bredberi va Hojiakbar Shayxov fantastik adabiyotda turli uslublardan foydalangan bo'lsalar-da, ularning asarlarida insoniyat taqdiri, ilmiy taraqqiyot va axloqiy qadriyatlar asosiy o'rin tutadi. Bredberining uslubi poetik va ramziy bo'lsa, Shayxov realistik va falsafiy yondashuv bilan ajralib turadi. Ikkala yozuvchi ham asarlarida fantastik tasvir vositalaridan unumli foydalangan va o'quvchiga ta'sir qiluvchi badiiy effekt hosil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Rey Bredberi, "Mars solnomalari" - Doubleday, 1950. 124 -b.
- [2]. Shayxov H., "Birinchi sinov" - T.: Fan nashr: 2004. 45- b.
- [3]. Shayxov H., "Olovdan chiqqan odam" - T.: Fan nashr: 2004. 78- b.
- [4]. Rey Bredberi - "Farengeyt bo'yicha 451 daraja". - Ballantine Books, 1953. 37-112 b.
- [5]. Shayxov H., "Iblis bilan muloqot" - T.: Fan nashr: 2004. 92- b.
- [6]. Rey Bredberi, "Yomg'ir keladi" - 1954. 187- b.